

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING DAVLAT MOLIVASINI BOSHQARISHDAGI O'RNI

Xayirbaeva Balzira Paraxat qizi

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
«Moliya va moliyaviy texnologiyalar» yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotning tezlik bilan rivojlanishi davlat boshqaruvida ham katta o'zgarishlarga, ya'ni yangi texnologiyalardan keng turda foydalanishga turtki bo'lmoqda. Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalari davlat moliyasini boshqarish jarayonlarini takomillashtirish, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini maksimum darajada oshirish hamda moliyaviy nazorat tizimini yanada yaxshilashda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu tezisda sun'iy intellekt texnologiyalarining davlat moliyasini boshqarishdagi ahamiyati tahlil qilingan bo'lib, sun'iy intellektning budjet daromadlari va xarajatlarini prognozlash, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, moliyaviy xavflarni aniqlash va ularning oldini olish, shuningdek boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo'yicha yordamchi xususiyatlari ko'rsatilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini davlat moliyasi tizimiga kiritishning afzalliklari xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida ko'rib chiqilgan va O'zbekistonda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar tadbiq etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra sun'iy intellekt texnologiyalaridan aqlga muvofiq foydalanish davlat moliyasini boshqarish sifati va shaffofligini oshirishga, moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga hamda davlat boshqaruvini yanada yaxshilashga xizmat qilishi keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, davlat moliyasi, raqamli transformatsiya, davlat budjeti, moliyaviy nazorat, prognozlash, katta ma'lumotlar (Big Data), avtomatlashtirish, davlat boshqaruvi, raqamli iqtisodiyot.*


So'nggi yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimidagi ma'lumotlar hajmining keskin turda ortib borishi sababli moliyaviy tizimni boshqarish hamda davlat byudjeti daromad va xarajatlari ustida monitoring ishlarini amalga oshirish kabi jarayonlarda qator muommolar kelib chiqmoqda. An'anaviy uslubdagi boshqaruvlar tizimi esa katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu sababli moliyaviy boshqaruvda yangi uslublar, ya'ni raqamli texnologiya turlari, jumladan su'niy intellektidan foydalanib ish yuritish qator imkoniyatlarni yaratib samaradorlikni bir nechta marotaba oshirmoqda va davlat moliyaviy tizimining bundan foydalanish zaruriyati kundan-kunga ortib bormoqda. Su'niy intellekt – bu kompyuter tizimlarining inson aqli bilan bog'liq ayrim funksiyalarni, jumladan o'rganish, tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va qaror qabul qilish jarayonlarini bajarish qobiliyatidir. Mazkur

texnologiya moliya sohasida katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ular asosida prognozlar tuzishda keng qo'llanilmoqda [1].

OECD ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak shuni aniq aytish mumkinki, davlat moliyaviy boshqarish tizimida su'niy intellektdan foydalanish kelajakdagi davlat daromad va xarajatlarini oldindan aniqlash va shuningdek fiskal risklarni erta aniqlash orqali ularning ta'sirini kamaytirish imkoniyatini beradi [2].

Hozirgi kunda su'niy intellekt haqidagi yuqorida keltirilgan afzalliklarni dunyoning eng oldi moliyaviy rivojlanishiga ega mamlakatlardagi iqtisodiyotchilar tasdiqlaydi. Shu borada O'zbekistonda ham su'niy intellekt texnologiyalarini yuksaltirish mamlakatning eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarorida iqtisodiyot va davlat boshqaruvi tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, ma'lumotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu islohotlar davlat moliyasini boshqarishda zamonaviy raqamli yechimlardan foydalanish, budget mablag'larini boshqarish samaradorligini oshirish va davlat xizmatlari sifatini yaxshilash uchun mustahkam huquqiy asos yaratmoqda [3].

Hozirda dunyo mamlakatlari orasida davlat moliyaviy boshqaruvida su'niy intellektni jarayonga qo'shish amaliyati tabora ortib bormoqda. OECDning 2025-yildagi tadqiqotiga ko'ra, 2025-yilda OECDga a'zo 36 mamlakatning 31 tasida (86%) davlat organlarining ichki boshqaruv jarayonlarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Shuningdek, 27 ta mamlakatda (75%) sun'iy intellekt davlat xizmatlarini ko'rsatishda qo'llanayotgan bo'lsa, 13 ta mamlakatda (36%) siyosiy va strategik qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlashda, 12 ta mamlakatda (33%) esa nazorat va hisobdorlikni kuchaytirishda foydalanilmoqda.



Ushbu ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki su'niy intellektni qo'llanish tajriba bosqichidan amaliy bosqichga o'tish jarayonida hisoblanadi. Ayniqsa, davlat byudjetini boshqarish, fiskal xavflarni prognozlash va xarajatlarni monitoring qilish, bugungi kundagi katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash kabi masalalarda su'niy intellektdan foydalanish katta vaqt va moliyaviy resurslarni tejash imkoniyatini beradi. OECD ekspertlarining ta'kidlashicha su'niy intellektdan foydalanish moliyaviy boshqarish tizimini butunlay o'zgartirish emas, balki bu tizimni yanada samarador va ishonchli qilish uslublaridan biri sanaladi.[4].

Jahon bankining GovTech Maturity Index hisobotida ta'kidlashicha davlat moliyaviy boshqaruvini raqamlashtirish umumiy samaradorlik darajalarini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur hisobotda qayd etilishicha su'niy intellektning katta ma'lumotlar (Big Data) bilan ishlay olishi va raqamli platformalardan foydalanishi iqtisodiy o'sishda katta o'zgarishlarga olib keladi va xorijiy tajribalar bu ta'kidlashlarga yaqqol misol bo'la oladi. [5]

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalarini davlat moliyasini boshqarish tizimiga keng joriy etish budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, fiskal xavflarni oldindan aniqlash, moliyaviy nazoratni kuchaytirish hamda davlat xizmatlari sifatini yaxshilash imkonini beradi. O'zbekistonda mazkur yo'nalishni yanada rivojlantirish maqsadida: birinchidan, davlat moliyasini boshqarishda sun'iy intellekt asosidagi tahliliy platformalarni keng joriy etish; ikkinchidan, budjet va soliq ma'lumotlarini yagona raqamli bazaga integratsiya qilish; uchinchidan, davlat xizmatchilarining sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malakasini oshirish; to'rtinchidan, davlat moliyasi sohasida sun'iy intellektdan foydalanishning huquqiy va axborot xavfsizligi mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur chora-tadbirlar davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish va mamlakatda raqamli transformatsiyani jadallashtirishga xizmat qiladi [6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. *Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence*. Paris, 2021.
2. OECD. *Governing with Artificial Intelligence: AI in Public Financial Management*. Paris: OECD Publishing, 2025.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarori.
4. OECD. *Digital Government Outlook 2025*. Paris: OECD Publishing, 2025. (OECD statistikasi uchun.)
5. World Bank. *GovTech Maturity Index 2022: Advancing Digital Transformation in the Public Sector*. Washington, DC, 2023.
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat moliyasini raqamlashtirish bo'yicha rasmiy materiallari.